


“TASDIQLANGAN”

O‘zbekiston Respublikasi
aksiyadorlik tijorat Xalq banki
aksiyadorlarining navbatdan tashqari
umumiylig‘ilishi qarori bilan

2021-yil 29-sentabrdagi
4-sonli bayonnomma



T.A. Ishmetov
Kuzatuv kengashi Raisi

Kommel

“RO‘YXATGA OLINGAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

2021-yil “4” noyabr
- son bilan



B.E. Zaxidov
Markaziy bank Raisining
bi-jinch o‘rinbosari

Zaxidov

**O‘ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
AKSIYADORLIK TIJORAT XALQ BANKI
USTAVIGA KIRITILAYOTGAN O‘ZGARTIRISH VA
QO‘SHIMCHALAR**

**2021-yil 29-sentabrdagi bank aksiyadorlarining
navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining 4-sonli
bayonnomma-qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi
aksiyadorlik tijorat Xalq banki Ustaviga kiritilayotgan
O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR**

1. Bank Ustavining 32-bandiga quyidagi tahrirda ikkinchi xatboshi qo‘shilsin:

“Bank ustav kapitali ochiq obuna o‘tkazish yo‘li bilan qo‘shimcha aksiyalar chiqarish orqali oshirilganda aksiyadorlarning ustav kapitaldagi ulushiga mutanosib ravishda imtiyozli sotib olish huquqi nazarda tutiladi, bundan qonunchilikda belgilangan holatlar mustasno.”

2. Bank Ustavining 41-bandidagi “z” va “k” kichik bandlari quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

z) Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

k) Bankning yillik hisobotlarini, shuningdek Bankning o‘rta yoki uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash;”

3. Bank Ustavining 45-bandni quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“45. Umumiy yig‘ilishlar yillik (hisobot) va navbatdan tashqari yig‘ilishlar tarzida o‘tkaziladi. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo‘lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi kun tartibiga moliya yili tugagandan keyin uch oydan kechiktirmay masalalar kiritishga hamda Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko‘rsatishga haqli.”

4. Bank Ustavining 52-bandidagi 8-kichik bandni quyidagi tahrirda bayon qilinsin hamda quyidagi mazmundagi 31-kichik band bilan to‘ldirilsin va 31-kichik band tegishli ravishda 32-kichik band deb hisoblansin:

“8) Bank boshqaruvini tuzish, Boshqaruv raisini tayinlash (saylash), uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, Bank boshqaruvi a’zolarini tayinlash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek bank boshqaruvining son tarkibini belgilash haqida takliflar kiritish;

28) Bankning kelgusi yilga mo‘ljallangan biznes-rejasi Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma’qullash va tasdiqlash;

31) qaror qabul qilishda oxirgi hisobot davri bo‘yicha Bank so‘f aktivlari miqdorining bir foizidan ortiq miqdorda homiylik, xayriya (moliyaviy

yordam) yoki qaytarmaslik sharti bilan yordam ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilish”;

5. Bank Ustavining 55-bandи quyidagi tahrirda 3-5-xatboshilari bilan to'ldirilsin:

“Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari bilan shartnoma Bank Kuzatuv kengashi raisi tomonidan tuziladi.

Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari kelgusi yil uchun qayta saylanganda ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi muddati uzaytirilishi bo'yicha qo'shimcha kelishuv tuziladi va Bank Kuzatuv kengashi raisi tomonidan rasmiylashtiriladi.

Tuziladigan shartnoma shartlarida mustaqil a'zoning huquq va majburiyatları, haq va kompensatsiyalar miqdori hamda ularni to'lab berish shartlari shuningdek, shartnomaning amal qilish muddatlari belgilanishi mumkin”.

6. Bank Ustavining 65-bandи birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“65. Bank Boshqaruvi raisi Kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadi (saylanadi). Boshqaruv raisining o'rribosarlari Boshqaruv raisining taqdimnomasiga ko'ra Kuzatuv kengashi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda tayinlanadi.”

7. Bank Ustavining 66-bandiga quyidagi mazmundagi 23-kichik band bilan to'ldirilsin hamda 23 va 24-kichik bandlar tegishli ravishda 24 va 25-kichik bandlar deb hisoblansin:

“23) qaror qabul qilishda oxirgi hisobot davri bo'yicha Bank so'f aktivlari miqdorining bir foizidan ortiq bo'lмаган miqdorda homiylik, xayriya (moliyaviy yordam) yoki qaytarmaslik sharti bilan yordam ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qiladi, bunda homiylik, xayriya (moliyaviy yordam) yoki qaytarmaslik sharti bilan yordam ko'rsatishning jami miqdori joriy yil uchun tasdiqlangan biznes-reja ko'rsatkichlaridan oshmasligi;”

8. Bank Ustavining 80-bandи quyidagi tahrirda ikkinchi xatboshisi bilan to'ldirilsin:

“Kuzatuv kengashi va boshqaruv a'zolarining javobgarligini sug'urtalash mumkin va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari asosida javobgarlikni sug'urtalash to'g'risida qaror qabul qilish, sug'urta limitlarini va sug'urta kompaniyasini belgilash Kuzatuv Kengashi tomonidan amalgalash oshiriladi”.

Boshqaruv Raisi

Sh. Atabayev

Тикилган ва ракамланган

(18 varaq)
варакдан иборат

4 ноуавр 2021-ийн

Имзо

